

NAMANGAN VILOYATIDA OLIY TOIFALI ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.


2018 yil 1 yanvar holatiga katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar soni viloyat bo'yicha 49 kishini tashkil qildi. 33 nafar katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar qabul qilinib 8 nafar katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar bitirdi.

2017 yilda katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar institutlarining asosiy ko'rsatkichlari

	katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutlari (doktorantura) mavjud tashkilotlar soni	Qabul qilingan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar	Ulardan, ayollar	2018 yil 1 yanvar holatiga katta ilmiy xodim-izlanuvchilar soni	Ulardan, ayollar	Bitirgan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar	Ulardan, ayollar	Jami bitiruvchilar sonidan dissertatsiya himoya qilganlar
Namangan viloyati	3	33	9	49	15	8	1	5


2017 yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarning asosiy qismi texnika (41,0 foiz) va (20,0 foiz) qishloq xo'jaligi fanlariga qilingan xarajatlar tashkil etdi.

2017 yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, mln. so'm



Tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni katta qismi texnika (41 foiz) va (20 foiz) ijtimoiy fan sohalariga to'g'ri keldi.

2017 yilda tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni fan sohalariga bo'yicha ulushi, foizda




2017 yilda tashkilotlarning o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni moliyalashtirish manbaalari, mln. so'm

	Jami	Shu jumladan:						
		jami budget mablag'lari	ulardan:		budgetdan tashqari fondlar mablag'lari	o'z mablag'lari	buyurtmachi mablag'lari	xorijiy manbalar mablag'lari
			respublika budgeti mablag'lari	mahalliy budgeti mablag'lari				
Namangan viloyati	3312,0	2792,8	2792,8	-	-	488,5	30,7	-

2016 yilda davlat sektoriga tegishli tashkilotlarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga qilingan xarajatlarning asosiy qismi tabiiy fanlar hissasiga (jami xarajatlarning 46,4 foizi), tadbirkorlik sektorida texnika fanlari hissasiga (64,4 foiz), oliy ta'lim hamda xususiy notijorat sektorlarida ijtimoiy fanlar hissasiga (mos ravishda 27,2 va 51,1 foiz) to'g'ri keladi.


Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan, shuningdek oily ta`lim muassasalarining pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni bajargan ilmiy daraja va ta`lim darajasi ega xodimlar soni



2017 yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar

	Jami (o`rindosh- larsiz)	Shu jumladan:				Pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlanmalarni bajaruvchi ilmiy pedagogik xodimlar soni	Pedagoglar tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlanmalarni bajarish uchun sarflangan ish vaqti (kishi-soat)
		tadqiqotchi mutaxassis- lar	texniklar	yordamchi xodimlar	boshqalar		
Namangan viloyati	159	20	86	7	27	165	29

2017 yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlarning fan sohalari buyicha taqsimlanishi, foizda



2017 yilda tadqiqotchi-mutaxassislarining 21,6 foizi (212 nafar) tabiiy fanlar sohasida, 34,1 foizi (334 nafar) gumanitar fanlar sohasida, 16,2 foizi (158 nafar) ijtimoiy fanlar sohasida, qolgan 28,2 foizi (275 nafar) texnika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi fanlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.